

“UNIVERSAL MOBILE SYSTEMS” MChJ  
Bosh direktorning texnika va AT bo'yicha o'rinbosari

\_\_\_\_\_ A.R. Abduraxmanov



\_\_\_\_\_ "05" \_\_\_\_\_ 01 \_\_\_\_\_ 2026y.

5 kVt quvvatli gibril FESni "kalit topshirish" usulida (uskunalarni yetkazib berish, qurish, o'rnatish va ishga tushirish) 10 dona xarid qilish uchun

### TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent shahri  
2026-yil

## Mundarija

1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi.....	3
1.2 Ishlarni (xizmatlarni) sotib olish maqsadi.....	3
1.3 Xarid amalga oshiriladigan ishlarni bajarish uchun asos.....	3
1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati.....	3
1.4.1 Uskunalarni yetkazib berish.....	3
1.4.2 Bojxona xarajatlari.....	3
1.4.3 Obyektga yetkazib berish.....	3
1.4.4 Saqlash uchun javobgarlik.....	3
1.4.5 FES qurilishi.....	4
1.4.6 Montaj va ishga tushirish-sozlash ishlariga qo'yiladigan talablar.....	4
2. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi.....	4
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	4
4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar.....	5
5. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatlari.....	8
6. Ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularning natijalari xavfsizligiga qo'yiladigan talablar..	8
7. Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari.....	8
8. Topshirish va qabul qilish qoidalari bo'yicha talablar.....	8
9. Ishlar va xizmatlar natijalarini yakunlash va topshirish bo'yicha texnik va boshqa hujjatlarni Buyurtmachiga topshirishga doir talablar.....	8
10. Ishlar va xizmatlar natijalariga sifat kafolatlari muddatini ko'rsatish bo'yicha talablar.....	8
11. Ijrochining ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish majburiyatlari bajarilishi natijasida yuzaga kelgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarni Buyurtmachiga o'tkazish shartlari ko'rsatilgan mualliflik huquqlari.....	9
12. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi.....	9
13. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar.....	9
14. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati:.....	9

### **1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi.**

Quvvati 5 kVt bo'lgan 10 ta gibrid FESni yetkazib berish, o'rnatish (montaj qilish) va "kalit topshirish" usulida ishga tushirish bo'yicha kompleks ishlari.

### **1.2 Ishlarni (xizmatlarni) sotib olish maqsadi.**

Ishning maqsadi uyali aloqa xizmatlarini ko'rsatishda tayanch stansiyasining to'xtab qolish vaqtini qisqartirish, elektr energiyasini tejash va muqobil energiya texnologiyalarini keng rivojlantirishdan iborat.

TSning kafolatli elektr ta'minotini ta'minlash.

### **1.3 Xarid amalga oshiriladigan ishlarni bajarish uchun asos.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining quyosh panellarini o'rnatish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlari.

### **1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati.**

Shartnoma hajmiga quyidagilar kiradi:

#### **1.4.1 Uskunalarini yetkazib berish.**

Bajariladigan ishlarning batafsil ro'yxati va asbob-uskunalarining texnik xususiyatlari ushbu texnik topshiriqda belgilangan. Ijrochi qurilish materiallari va FES uskunalarining barcha yo'qotishlari va shikastlanishlari uchun javobgardir.

Uskuna yangi bo'lishi va yetkazib berish sanasidan 365 kalendar kundan oldin ishlab chiqarilgan bo'lmasligi lozim. Uskunalar ilgari foydalanilmagan va ishlatilmagan bo'lishi lozim. Uskunalar zamonaviy, energiya tejamkor, foydalanishda ishonchli, ta'mirlashga qulay, xalqaro sifat standartlariga mos kelishi va O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyasida sinovdan o'tkazilgan bo'lishi kerak, bu muvofiqlik sertifikatini bilan tasdiqlanadi.

Ijrochi yetkazib berilgan uskunaning ushbu texnik shartlarda ko'rsatilgan texnik xususiyatlarga nomuvofiqligi bo'yicha har qanday kamchiliklarni o'z hisobidan va shartnoma qiymati doirasida bartaraf etishi shart.

#### **1.4.2 Bojxona xarajatlari**

Yetkazib beruvchi uskunalarining bojxona rasmiylashtiruvini va barcha bojlar, soliqlar hamda yig'imlarni to'lashni mustaqil ravishda va o'z hisobidan amalga oshiradi. Buyurtmachi chegaradan o'tish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni zimmasiga olmaydi.

#### **1.4.3 Obyektga yetkazib berish**

Yetkazib beruvchi uskunalarini bojxona omboridan montaj joyigacha yetkazib berishni tashkil etishi shart. Barcha transport xarajatlari, yukni sug'urtalash va yuklab-tushirish ishlari Yetkazib beruvchining zimmasida bo'ladi.

#### **1.4.4 Saqlash uchun javobgarlik**

Yetkazib beruvchi montaj tugallangunga va qabul qilish dalolatnomasi imzolangunga qadar asbob-uskunalarining saqlanishi va holati uchun to'liq javobgardir.

**O'rnatishdan oldin:** Yetkazib beruvchi uskunalarni o'z omborida saqlanishini o'z hisobidan ta'minlaydi.

**Montaj paytida:** Yetkazib beruvchi ish Buyurtmachiga topshirilgunga qadar o'z uskunalari va asboblarni qurilish maydonida qo'riqlash uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

#### **1.4.5 FES qurilishi.**

Qurilish va montaj ishlari Ijrochining mutaxassislari va/yoki jalb etilgan subpudrat tashkilotlari kuchlari bilan bajariladi.

#### **1.4.6 Montaj va ishga tushirish-sozlash ishlariga qo'yiladigan talablar.**

Uskunalarini o'rnatish va ishga tushirish Ijrochi tomonidan amalga oshiriladi va shartnoma narxiga kiritilgan bo'lishi lozim. Uskunalarini montaj qilish deganda elementlarni yig'ish, o'rnatish, mahkamlash, birlashtirish ishlari, shuningdek Ijrochi tomonidan to'g'ri yig'ilishini nazorat qilish, obyektning qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish va montaj jarayonida yuzaga keladigan texnik masalalarni tezkor hal etish tushuniladi.

#### **Montajni amalga oshirishda Ijrochi quyidagilarni bajarishi lozim:**

- Montaj, ishga tushirish-sozlash ishlari va foydalanishga topshirish uchun kerakli malakaga ega mutaxassislarni yo'naltirish. Buyurtmachining mutaxassislarga maslahatlar berish, o'rnatish sifatini nazorat qilish, ishga tushirish-sozlash ishlarini o'tkazish va Buyurtmachi bilan muvofiqashtirish hamda uskunalarni ishga tushirishni nazorat qilish.

- Qurilish ishlarining to'g'ri bajarilishi va uskunalarning to'g'ri o'rnatilishini nazorat qilishni ta'minlash.

- Uskunalarining to'g'ri ishlashini nazorat qilish va ta'minlash.

- Butun tizimni keyinchalik ishga tushirish uchun qismlarni to'g'ri yig'ish, o'rnatish, ulash va tayyorlashni ta'minlash. Bunda Ijrochi nominal quvvatga chiqish va mahsulotning tegishli sifati uchun javobgar hisoblanadi.

#### **Ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarishda Ijrochi:**

Barcha zarur ishga tushirish va sozlash operatsiyalarini hamda uskunalarni sinovdan o'tkazish, uskunalarni erkin holatda yoki yuklamasiz sinab ko'rish, dasturiy ta'minotni bosqichma-bosqich tekshirish va sozlash, barcha blokirovkalar va chegaraviy qiymatlarni qo'l va avtomatik rejimlarda tekshirishni amalga oshirish.

## **2. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish joyi.**

Barcha ishlar Samarqand viloyatidagi 10 ta (o'nta) obyektida olib boriladi.

## **3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.**

Konsorsium tarkibidagi ishtirokchi quyidagilarga ega bo'lishi kerak: Shtatda parallel ravishda ishlaydigan kamida 4 ta brigadaning mavjudligi; ushbu Texnik topshiriq (TT) doirasida tarmoq va gibrid fotoelektr stansiyalarini (FES) shef-montaj qilish, ishga tushirish-sozlash va foydalanishga topshirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha yetarli ish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

#### 4. Ijrochiga qo'yiladigan talablar.

Ijrochi yetkazib beriladigan materiallar, asbob-uskunalar, qurilishda qo'llaniladigan butlovchi buyumlar texnik topshiriqqa muvofiq bo'lishini kafolatlashi kerak. Qurilishda qo'llaniladigan asbob-uskunalar O'zbekiston Respublikasining akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyasi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatlariga ega bo'lishi shart.

Agar shartnoma majburiyatlarini bajarishda Ijrochi yoki u jalb qilgan shaxs Buyurtmachining mol-mulkiga va uchinchi shaxslarga zarar yetkazsa, Ijrochi zararni o'z mablag'lari hisobidan to'liq hajmda qoplashi shart.

Ijrochi ishlarni bajarishda texnika xavfsizligi qoidalariga va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga qat'iy rioya etilishi uchun mas'uldir.

Ijrochi tovar bilan birga qog'oz va elektron ko'rinishda quyidagilarni taqdim etadi:

- Har bir uskunaning foydalanish bo'yicha yo'riqnomasi va texnik pasporti.
- Muvofiqlik sertifikatlari.

#### FES jihozlari va materiallarining tarkibi.

1-jadval

FEM	
FEM quvvati	kamida 715 Vt bo'lishi shart
Quyosh elementi turi (yacheyka)	Monokristalli
Baypas-diodlar soni	kamida 3 dona
FEM samaradorligi	kamida 21% bo'lishi kerak
Foydalanish harorati	-30°C dan -40°C gacha va +65°C dan +85°C gacha
FEMning chang va suv kirishidan himoyalash darajasi	kamida IP66
FEMning xizmat muddati	kamida 25 yil
Servis kafolati	FESni ishga tushirgandan so'ng 5 yil
FEM quyidagi xalqaro standartlarga mos kelishi shart:	IEC 61215, IEC 61701, IEC 61730, IEC 62716, IEC 62804-1

FEMni elektr energiyasini maksimal darajada ishlab chiqarishni ta'minlaydigan burchak ostida o'rnatish lozim.

FEM energiya tejamkor bo'lishi va "Half-Cell" texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

FEM ishlab chiqaruvchilari "Tier-1" ro'yxatiga kiritilgan bo'lishi shart.

FEMning kafolatlangan xizmat muddati kamida 12 yil bo'lishi lozim.

Barcha FEMlar bir turda va bir ishlab chiqaruvchidan bo'lishi kerak.

2-jadval

<b>Gibrid uch fazali inverter</b>	
<b>Ulanadigan AKB xususiyatlari</b>	
Turi	litij-ionli
Kuchlanish oralig'i	45 V dan 60 V gacha
Maksimal zaryadlash toki	135 A
Maksimal razryadlash toki	135 A
Zaryadlash egri chizig'i	3 bosqich / Tenglash
Tashqi harorat datchigi	Mavjud
Litij-ionli AKBni zaryadlash strategiyasi	BMSga moslanish
<b>O'zgarmas kuchlanish xususiyatlari</b>	
Maksimal kirish quvvati	6000 Vt dan 9000 Vt gacha
Kirish kuchlanishi	160 V dan 800 V gacha
MPPT ish diapazoni	200 V dan 650 V gacha
MPPT ishga tushish kuchlanishi	160 V
Nominal MPPT toki	13 A
MPPT qisqa tutashuv toki	17 A
MPPT trekerlar soni	2
MPPT trekerga kirishlar soni	2
<b>O'zgaruvchan kuchlanish xususiyatlari</b>	
Nominal chiqish quvvati	5000 Vt
Maksimal chiqish quvvati	5500 Vt
Avtonom rejimdagi maksimal quvvat	Nominal quvvatdan 2 barobar ko'p – 10 soniya
Nominal tok kuchi (fazaviy)	7,2 A – 7,6 A
Maksimal tok kuchi (fazaviy)	8,0 A – 8,4 A
Maksimal tok kuchi (chiziqli)	10,9 A – 11,4 A
Maksimal qisqa tutashuv toki	65 A
Uzluksiz maksimal tok	45 A
Chastota, kuchlanish	50 Gs, fazaviy 220 V / chiziqli 380 V
<b>Himoya</b>	
Yoy tutashuvidan himoya	Mavjud
O'zgarmas tok tomonida yashindan himoya	Mavjud
O'zgarmas tok tomonida teskari qutblanishdan himoya	Mavjud
O'zgaruvchan tok tomonida haddan tashqari yuklanishdan himoya	Mavjud

Qoldiq tokni nazorat qilish bloki	Mavjud
O'zgaruvchan tok tomonida qisqa tutashuvdan himoya	Mavjud
Haddan tashqari kuchlanishdan himoya	III tur o'zgarmas, III tur o'zgaruvchan
<b>Umumiy ma'lumotlar</b>	
Ishchi harorat diapazoni	-40°C dan +60°C gacha
Sovutish	Mavjud
Himoya darajasi	IP65 dan kam emas
BMS bilan aloqa	RS485, CAN
Invertor xizmat muddati	kamida 10 yil

Ushbu texnik topshiriqda gibrid invertorning ishlashini ta'minlash uchun Li-ion akkumulyatorlarni yetkazib berish ko'zda tutilmagan. Li-ion akkumulyatorlar tayanch stansi yasi to'plami tarkibidan foydalaniladi.

Invertor global bozor uchun ishlab chiqarilgan bo'lishi lozim. Invertor tuzilishida fotoelektrik modullardan hosil qilinayotgan elektr energiyasi haqidagi ma'lumotlarni aks ettiruvchi displey nazarda tutilishi kerak.

Gibrid invertorning kafolatlangan xizmat muddati kamida 5 yil bo'lishi shart.

O'rnatish	Devorga o'rnatiladi, devor bo'lmagan holda metall karkasni ko'zda tutish lozim
COM - port	CAN 2.0, RS485

### **Onlayn nazorat tizimi:**

Invertor qurilmaning ishlashi to'g'risidagi ma'lumotlarga masofadan kirishni ta'minlovchi nazorat tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Nazorat uchun Internet tarmog'iga ulanish 4G GSM modem (dongle) orqali amalga oshirilishi lozim. Nazorat tizimi kamida quyidagi interfeys tillaridan birini qo'llab-quvvatlashi shart: rus yoki ingliz tili.

### **Fotoelektrik modullar uchun kabel:**

- Fotogalvanik elektr qurilmalari uchun galogen qo'sh qobiqli mis (ko'p simli) bir o'zakli kabel bo'lishi kerak.

- Nominal kuchlanish 1,5 kV doimiy tok.

- Kabel atrof-muhitning barcha ta'sirlaridan (yomg'ir, qor, ultrabinafsha nurlanish, harorat o'zgarishlari) himoya qiluvchi maxsus ikki qatlamli izolyatsiyaga ega bo'lishi lozim.

- Izolyatsiya yonmaydigan va yeyilishga chidamli bo'lishi shart.

- Kabelning xizmat muddati kamida 20 yil bo'lishi kerak.

### **Metall konstruksiyalar:**

- Payvandlash sifatli va ishonchli bo'lishi lozim. Payvand choklarni payvandlanayotgan detallarning eng yupqa qismi bo'yicha qabul qilish kerak.

- Metall karkas ushbu hudud uchun shamol va qor yuklamasiga mo'ljallangan bo'lishi shart.

- Metall konstruksiyalar bo'yalishi lozim, ruxlangan material ishlatilganda bo'yash talab etilmaydi.

- Metall konstruksiyalar o'lchami kamida 40 mm (h) × 20 mm (b) × 2 mm (s) bo'lgan to'g'ri burchakli po'lat quvurdan tayyorlanishi kerak. Bunda h - to'g'ri burchakli quvurning balandligi, b - kengligi, s - devor qalinligi hisoblanadi.

- Metall konstruksiyalar shunday loyihalaniishi kerakki, ularni alohida elementlarga va butun konstruksiyaga zarar yetkazmasdan demontaj qilish mumkin bo'lsin. Konstruksiyani mustahkamlik xususiyatlarini yo'qotmagan holda qayta yig'ish imkoniyati ko'zda tutilishi lozim. Metall konstruksiya elementlarining barcha ulanishlari boltli birikmalar yordamida amalga oshirilishi shart. Payvand birikmalar faqat konstruksiyani demontaj qilishga xalaqit bermaydigan hollardagina ruxsat etiladi. Demontaj qilingan metall konstruksiya elementlari avtomobil yoki boshqa turdagi transportda tashish uchun qulay bo'lgan ixcham o'lchamlarga ega bo'lishi kerak. Metall konstruksiyani beton poydevorga mahkamlash beton quyish paytida oldindan o'rnatilgan flanetsli qo'shimcha detallar yordamida amalga oshirilishi lozim.

- Metall konstruksiyalarning xizmat muddati kamida 20 yil bo'lishi kerak.

#### **5. Ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish muddatlari.**

- Yetkazib berish va barcha ishlarni bajarishning umumiy muddati shartnoma tuzilgan kundan boshlab 60 kalendar kundan oshmasligi lozim.

#### **6. Ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish va ularning natijalari xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.**

Qurilish jarayonida Ijrochi quyidagilarga amal qilishi shart:

- Ijrochi mutaxassislari tomonidan Buyurtmachining amaldagi ichki mehnat tartibi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya etilishini ta'minlash.

#### **7. Atrof-muhitni muhofaza qilish talablari.**

O'zbekiston Respublikasining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari, me'yori, qoidalar va standartlarida nazarda tutilgan talablar.

#### **8. Topshirish va qabul qilish qoidalar bo'yicha talablar.**

Ishga tushirish-sozlash ishlarining yakunlanishi uskunadan elektrotexnik foydalanish va unga rejali texnik xizmat ko'rsatish vaqtining boshlanishini qayd etish uchun bajarilgan ishlarning ikki tomonlama dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Elektrotexnik sinovlar muvaffaqiyatli o'tkazilgandan so'ng, nominal quvvat bilan kamida 72 soat uzluksiz ishlagach, FESni ishga tushirish va Buyurtmachiga topshirish uchun ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi. Uskunalar Buyurtmachining mas'uliyatiga o'tkaziladi.

#### **9. Ishlar va xizmatlar natijalarini yakunlash va topshirish bo'yicha texnik va boshqa hujjatlarni Buyurtmachiga topshirishga doir talablar.**

Ijrochi yetkazib beriladigan barcha uskunalar uchun texnik pasportlar va sertifikatlarni taqdim etishi shart.

#### **10. Ishlar va xizmatlar natijalariga sifat kafolatlari muddatini ko'rsatish bo'yicha talablar.**

Ijrochi quyidagi barcha kamchiliklarni (agar mavjud bo'lsa) o'z hisobidan bartaraf etish majburiyatini oladi:

- Buyurtmachi tomonidan aniqlangan.
- Mualliflik nazorati jarayonida aniqlangan.
- Davlat nazorati organlari tomonidan aniqlangan.
- Obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanganidan keyin besh yil ichida aniqlangan.

**11. Ijrochining ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish majburiyatlari bajarilishi natijasida yuzaga kelgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarni Buyurtmachiga o'tkazish shartlari ko'rsatilgan mualliflik huquqlari.**

Ijrochi qurilish ishlarini bajarishda quyidagilarga majbur:

- Intellektual mulkni huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq talablarga rioya etish.
- Buyurtmachiga qurilish va konstruksiyalarda qo'llanilgan texnik yechimlarga uchinchi shaxslarning mutlaq huquqlari yo'qligini kafolatlash.
- Qurilish ishlarini bajarishda olingan texnik natijalarni Buyurtmachining rozilgisiz e'lon qilmaslik.
- Ishlarni bajarish doirasida huquqiy muhofaza salohiyatiga ega bo'lgan natijalarni himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ta'minlash, bunda Buyurtmachini amalga oshirilgan harakatlar to'g'risida albatta xabardor qilish.

**12. Obyektga bo'lgan mutlaq huquqlar va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi.**

Talab etilmaydi

**13. Xodimlarni texnik o'qitish bo'yicha talablar.**

Talab etilmaydi

**14. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati:**

3-jadval

T/r	Qisqartma	Qisqartmaning to'liq shakli
1	FES	Fotoelektrik stansiya
2	EQO'Q	Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari
3	TFQ	Texnik foydalanish qoidalari
4	ATY	Asosiy texnik yechimlar
5	AKB Li Ion	Litiy-ion akkumulyator batareyasi
6	FEM	Fotoelektrik modul
7	TX	Texnik xususiyatlar
8	TT	Texnik topshiriq
9	SES	Elektr ta'minoti tizimi
10	TS	Tayanch stansiya

## Ilovalar.

Fayl turi: PDF

Obyektlarni joylashtirish rejasi.

Kelishildi:

Tarmoqdan foydalanish  
departamenti direktori

Tarmoqdan foydalanish  
departamenti direktori  
o'rinbosari

Bosh energetik

Bosh energetik o'rinbosari

Loyihalarni boshqarish bo'limi  
boshlig'i

Quyosh panellari, akkumulyator  
batareyalari va fotoelektrik  
stansiyalarga xizmat ko'rsatish  
guruhi rahbari

Ishlab chiqildi:

Bosh energetik bo'limi  
mutaxassisi

F.I.Sh.

B.X. Usmanov

D.A. Atametov

Y.S. Karabayev

B.B. Tulyaganov

B.X. Otaboyev

V.O. Omarov

V.D. Tyukalov

**hisob-kitob qiymati**  
**Расчетная стоимость**

**Стоимость ФЭС (Таблица №1)**

Наименование	Ед изм	К-во	Цена за 1 ед. без НДС	Стоимость поставки без НДС	НДС	Стоимость поставки с НДС
Гибридная фотоэлектрическая станции мощностью 5 кВт «под ключ» (доставка, строительство, монтаж и пуско-наладка оборудования)	шт	10	44 642 857,14	446 428 571,40	53 571 428,6	500 000 000
Итого				446 428 571,40	53 571 428,6	500 000 000

**Подробная техническая описания и комплектация ФЭС (Таблица №2)**

Narxlar tanlovning maksimal qiymatini shakllantirishini ko'rsatish uchun ma'lumot maqsadida berilgan;  
Narx taklifini ishtirokchi taklifni taqdim etishda maxsus axborot portalining elektron tizimining tegishli bo'limiga kiritishi kerak;

Ishtirokchi tomonidan har bir pozitsiya bo'yicha taklif qilingan narx belgilangan maksimal narxdan oshmasligi kerak.  
Taklifning umumiy qiymati ko'rsatilgan hajmlardan kelib chiqib hisoblanishi lozim;

Yutuvchi shartnoma tuzilishi vaqtida spetsifikatsiyaning yakuniy versiyasini taqdim etishga majbur bo'ladi va ushbu spetsifikatsiya shartnomaning ajralmas qismi bo'ladi;

Shu bilan birga, shartnomaning umumiy qiymati qat'iy hisoblanadi. Ishlar va to'lovlar tomonlar tomonidan imzolangan buyurtmalar asosida amalga oshiriladi

Цены носят информационный характер для демонстрации формирования предельной стоимости отбора;

Ценовое предложение участник должен внести в соответствующий раздел электронной системы специального информационного портала при подаче предложения;

Цена, предложенная участником по каждой позиции, не должна превышать установленную предельную цену за единицу. Общая стоимость предложения должна быть рассчитана исходя из указанных объемов.

Победитель обязуется предоставить финальную версию спецификации на момент контрактации и данная спецификация будет являться неотъемлемой частью договора.

При этом, общая стоимость договора является фиксированной. Работы и оплата будут производиться на основании подписанных сторонами заказов.